
Sportning kamondan o'q otish turi bo'yicha mahorat darslari o'tkazildi
Qo'shtepa tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlar o'rtasida sog'lom
turmush tarzini ommalashtirish yo'nalishida turli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Mana shunday tadbirlardan biri tumandagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida "Qumtepa" mahallasidagi uyushmagan yoshlar hamda maktab
o'quvchilari o'rtasida sportning kamondan o'q otish turi bo'yicha mahorat darslari
o'tkazildi.

Qo'shtepa tumani Qo'riqlash bo'limi tomonidan o'tkazilgan mahorat darslari yoshlar
o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

2024-12-20 13:29:32